

## 111. Muntazam shakllarning perimetri

**Yondosh mavzu:**  
landshaft dizayni.

Formula, perimetr,  
teng tomonli ko'pburchak.



1. Qanday gulpushti muntazam ko'pburchak shakliga ega? Har bir gulpushtining perimetрини топа оласизми?



Muntazam ko'pburchak – bu barcha  
tomonlari teng bo'lgan ko'pburchak.  
Ko'pburchakning perimetri uning barcha  
tomonlari uzunliklari yig'indisiga teng.  
Muntazam ko'pburchakning perimetрини  
qisqacha, quyidagicha yozish mumkin:

$$P = a \cdot 6$$

$$P = a + a + a + a + a + a = a \cdot 6$$

2. Gulpushti muntazam sakkizburchak shakliga ega. Uning bir tomoni  
uzunligi 45cm. Shu gulpushtining perimetрини топинг.




3. Akmal simdan ko'pburchak modellarini yasamoqda. Har bir  
ko'pburchak tomonlarining uzunligi 27 cm. Uchburchak shaklidagi  
model uchun qancha sim kerak? To'rtburchakli model uchun-chi?  
Beshburchakli model uchun-chi?  $n$  burchakli model uchun-chi?

Bir kattalikning boshqa kattalikka bog'liqligini ko'rsatuvchi matematik yozuv **formula** deb ataladi.

**Kvadrat perimetri formulasi:**






$$P = a \cdot 4$$



-  4. Kvadrat perimetri formulasi yordamida toping:
- kvadratning tomoni 12 cm bo'lsa, uning perimetrini;
  - kvadratning perimetri 688 cm bo'lsa, uning tomonini.

-  5. Ushbu shakllar perimetrlari uchun formulalar yozing.



-  6. Tomoni 7 cm bo'lgan muntazam uchburchakning perimetrini toping. Agar uchburchakning tomoni ikki marta ortsa, uning perimetri necha marta ortadi?

-  7. Akmal yog'och reykalardan rasmdagidek fotoramka yelimlamoqchi. Katta ramkaning tomoni 35 cm, kichik ramkaning tomoni esa undan 80 mm qisqa. U umumiy uzunligi qanday bo'lgan reyka sotib olishi kerak?



## 111. Muntazam shakllarning perimetri



8. Landshaft dizayneri sayilgoh yo'lini g'ayrioddiy shakldagi arklar bilan bezatadi. Har bir ark bir xil uzunlikdagi beshta to'sindan iborat. Bitta to'sining uzunligi 1m 40cm. Shunday beshta ark uchun necha metr to'sin kerak bo'ladi?



9. Sxemalar bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.

$$326 \cdot 7 - 432 - 96$$

$$\quad : 14$$

$$8000 - 2700 : 6$$

$$\quad : 50$$



10. Hisoblang. Bu yerda qanday so'z yashiringan?

$$457200 : 9 + 6 \cdot (93562 - 12229) : 7 + 13764 + 395661 - 524139$$

**S** 69714

**Z** 134278

**A** 120514

**O** 529939

**M** 81333

**Y** 487998

**A** 50800

**R** 5800



11. Bog' maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning bo'yi enidan 2m katta, perimetri esa 96 m. Ushbu maydonning yuzini toping.



12. Tomoni 3cm 5mm bo'lgan kvadratning perimetрини toping.



13. Hisoblang. Shaharliklar dam oladigan joy qanday ataladi?

$$56700 : 90 - 3 \cdot (9043 - 7636) : 7 + 1382 - 968$$

**O** 1409

**O** 603

**I** 630

**H** 1407

**Y** 4221

**N** 441

**B** 27

**T** 63